Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki ishlar organlari xodimlarining barchasi ham xizmatning o'ziga xos xususiyatlari (odatda ish yuklamasining ko'pligi, vaqt tanqisligi, xavf-xatar bilan bog'liq vaziyatlarning ko'pligi tufayli yuzaga keladigan favqulodda holatlar va boshqalar) bilan bog'liq bo'lgan obyektiv qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir emas ekanligi aniqlandi.

Bu holat kadrlar qo'nimsizligiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi ya'ni oddiy va kichik boshliqlar tarkibidagi xodimlarning aksariyati ichki ishlar organlaridan o'z ixtiyori

bilan ishdan bo'shaydi. Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, ichki ishlar organlarining kadrlar tizimini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish, shuningdek, ularni kadrlar bilan ta'minlashni takomillashtirish muammolari sifat jihatidan butunlay yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyat sodir etilishining obyektiv sabablari va shart-sharoitlari doirasida iqtisodiy omillar ko'pincha asosiy o'rin tutadi. So'rovda qatnashgan ichki ishlar organlari xodimlarining fikricha, oddiy xodimlarning ish haqi barcha tamagirlik jinoyatlarining bosh sababi hisoblanadi. Sotsiologik so'rov natijasida respondentlarning 46,3 %i bu fikrni ta'kidlaydi.

Shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilish sabab va sharoitlaridan ayrimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bular bir nechta.

Iqtisodiy sabablar. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaning bu turdagi ko'rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma'muriy boshqarishga intilgan hokimiyat hamda byurokratiya yuqori bo'lgan joyda rivoj topadi. Bozor iqtisodiyoti, xalqning farovon yashashi uchun olib borilayotgan faoliyatga nisbatan o'rnatilgan turli xil ko'rinishdagi cheklashlar, ayrim mutasaddi rahbarlarning ruxsat berish yoki taqiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi.

Shu bilan bog'liq holda, yirik mablag' egalari o'z daromadlarini yanada ko'paytirish avjida nosog'lom raqobatni tanlab alohida imtiyozlarga ega bo'lish maqsadida mansabdor shaxslarni pora evaziga sotib olish va ularni o'z ixtiyoriga bo'ysundirishga intiladi (Khayitov, 2018, p. 44).

Huquqiy sabablar. Korrupsiyaning rivojlanishi qonunlar sifatiga ham bog'liq. Mukammal bo'lmagan qonunlar ishlaymaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan, ya'ni "qonunni buzib bo'lmaydi, lekin chetlab o'tsa bo'ladi" degan tushuncha bilan g'araz niyatlarda foydalanadi.

Institutsional sabablar. Davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, ayrim demokratik institutlarning zaifligi, jamoatchilik nazoratini olib borishda faollikning yetishmasligi, ommaviy axborot vositalarining erkin emasligi, faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi deb tushunilishi, fuqarolarning befarqligi va loqaydligi va shu kabilarni keltirish mumkin.

Ijtimoiy sabablar. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit, aholining huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyati, ma'naviyati, uyushqoqligi va jamoatchilik faolligining yetarli darajada rivojlanmaganligi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi muhim omillar bo'lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy tizimning nosog'lom faoliyat yuritishida o'z ifodasini topadi. Rossiyalik siyosatshunos G.A. Satarovning fikriga ko'ra, korrupsiya oddiy huquqbuzarlik yoki yakka shaxsning axloqiy zaifligi natijasida yuzaga keladigan holat emas, balki u jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy tuzilmalariga chuqur ildiz otgan, ko'p qirrali va o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning fikricha, korrupsiyaning asosiy sabablari inson tabiatidagi nomukammallikda emas, balki davlat hokimiyati mexanizmlarining samarasizligi va nomukammal tuzilganida mujassam bo'ladi. Xususan, iqtisodiyotda davlatning ortiqcha va nazoratsiz ishtiroki, boshqaruv tizimlarining ochiq va shaffof emasligi, qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik nazoratining yetarli emasligi korrupsiyaning ildiz otishiga zamin yaratadi. Satarovning bu yondashuvi korrupsiyani shaxsiy xatti-harakat natijasi sifatida emas, balki davlat boshqaruvi tizimidagi tuzilma va funksional muammolar bilan bog'liq tub ijtimoiy muammo sifatida qarashni talab qiladi.



Bu borada N.T. Ismoilov: “Sababning o‘zi shart-sharoit bilan o‘zaro ta’sir orqali namoyon bo‘ladi va oqibatni keltirib chiqaradi”, deydi (Ismoilov, 2004, pp. 29-31). Bizningcha, bu fikr sabab-oqibat munosabatini to‘g‘ri tushuntirishga qaratilgan. N.T. Ismoilov nazariy jihatdan jinoyatchilik, jumladan, korrupsiya kabi ijtimoiy muammolarni tushunishda murakkab shart-sharoitlar, ijtimoiy muhit va boshqa omillar ta’sirini inkor etmaydi. Ya’ni korrupsiya yakka bir omil natijasi emas, balki turli shartlar o‘zaro ta’sirining natijasidir. Bu qarash jinoyatchilik profilaktikasini ishlab chiqishda ham foydali.

Korrupsiya sabablarini aniqlashda yana bir yondashuv tarkibiy-funksional yondashuvdir. Uning mohiyati shundan iboratki, korrupsiya og‘uvchi ijtimoiy xulq-atvor sifatida rivojlanayotgan jamiyatning muqarrar atributi bo‘lib, unga ijtimoiy nazoratning zaif mexanizmi xosdir. Bu yondashuv albatta, ijtimoiy nazariya nuqtayi nazaridan tahlilga asoslangan. Korrupsiyaning jamiyatdagi umumiy madaniyat, qonunbuzarlikka bo‘lgan murosasozlik va nazorat mexanizmlarining samarasizligi kabi ichki omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, fikrimizcha, faqat huquqiy choralar yetarli emas – ijtimoiy ong, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

N.V. Selixov korrupsiyaning paydo bo‘lishi va o‘sishi sabablarining uchta guruhini, shuningdek, bunga yordam beradigan bir qator shart-sharoitlarni ajratadi. Uning fikricha, korrupsiyaning kelib chiqishining ijtimoiy-siyosiy sabablari jamiyat va davlatning tuzilmaviy inqirozi hamda davlatning “zaifligi” deb hisoblanadi (Selikhov, 2001, p. 43). N.V. Selixovning fikri korrupsiyaning makrotuzilma darajasidagi sabablarini yoritadi. Davlat institutlarining samarasizligi, nazoratsizlik va institutsional inqiroz korrupsiyaning avj olishiga sharoit yaratishi aniq. Bu fikr Xalqaro *Transparency International* va Jahon banki kabi tashkilotlar tahlillari bilan ham mos keladi – ular ham korrupsiyaning yuqori darajasi davlat boshqaruvining samarasizligi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Jamiyat va davlatning tuzilmaviy inqirozi ularning rivojlanishidagi shunday bosqichni anglatadiki, bunda asosiy ijtimoiy va davlat institutlarining shakllanishi yakunlanmaganligi kuzatiladi. Bir qator G‘arb siyosatshunoslarining fikricha, korrupsiya jamiyat va davlatga barcha davrlarda hamroh bo‘lib kelgan tabiiy hodisalar qatoriga kiradi.

Ular uchun uning paydo bo‘lishi, tez sur’atda o‘sishi va ijtimoiy nazoratdan chiqib ketishi jamiyatning ichki ziddiyatlari kuchayganini, tizimli inqiroz yuz berganini va jamiyatning chuqur mexanizmlarini tartibga solish zarurligini ko‘rsatmoqda (Shabanin, 1994).

K. Fridrixning qarashlariga ko‘ra, korrupsiyani yo‘q qilishni vazifa sifatida belgilash mumkin emas, ya’ni bu utopiya hisoblanadi. Unga qarshi kurashishdagi asosiy vazifa korrupsiyani siyosiy tizimga yoyilishini, izdan chiqarishini oldini olishga qaratish lozim, deb izohlaydi (Friedrich, 1972).

Bu fikrda muayyan haqiqat bor, chunki korrupsiya shaxsiy manfaat, g‘arazlar va tizimdagi zaifliklar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

Biroq bu munosabat ma’lum ma’noda pessimistik va ehtimol, ayrim hollarda passivlikni oqlab berishga olib kelishi ham mumkin. Zero, har qanday jamiyatda korrupsiyani faqat nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, uning ildiz sabablarini bartaraf etish, jumladan, institutsional islohotlar, shaffoflikni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va ta’lim-tarbiya orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi kompleks choralar orqali uning darajasini keskin pasaytirish ham mumkin.

M. Jonstoning ta’kidlashicha, korrupsiyaning jamiyatda mavjud bo‘lishi quyidagi muammolarning belgisidir (Johnston, 1997, p. 18):

– jamiyatda iqtisodiy inqirozlarning yuz berishi;

- muayyan huquqlar va mulkchilik huquqlarini kafolatlovchi qonuniy mexanizmlarning mukammal emasligi;
- jamiyatda ijtimoiy aloqadorlik va tabiiy raqobat mexanizmining sustligi;
- milliy belgilariga asosan bo'linishlar va etnik ziddiyatlar;
- siyosiy jarayonlarda aholining faol ishtirok etmasligi;
- fuqarolik huquqlarining sust himoyalanganligi, siyosiy tizimning yopiqligi.

M. Jonstonning fikriga ko'ra, korrupsiya jamiyatdagi chuqur muammolarning iqtisodiy inqirozlar, huquqiy kafolatlarning zaifligi, ijtimoiy aloqalarning susayishi, etnik ziddiyatlar, aholi faolligining pastligi va yopiq siyosiy-iqtisodiy tizim belgisi hisoblanadi. Shu bois unga qarshi kurashish faqat jazo choralari bilan emas, balki institutsional islohotlar va ochiq jamiyat tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan subyektiv omillar orasida ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyat sodir etishiga olib keladigan omillardan biri past kasbiy malakaga ega ekanligidir. Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlar asosan ta'lim jarayonida shakllanishini ta'kidlagan holda, mahkum etilgan sobiq ichki ishlar organlari xodimlari o'zlarining dastlabki kasbiy tayyorgarligiga ham, malaka oshirishga ham yetarli e'tibor qaratmaganligini qayd etamiz.

Mutaxassislarning fikricha, ichki ishlar organlari xodimlarining o'z kasbiy mahoratini oshirishga bo'lgan yondashuvi bugungi kunda o'zgargan. Xizmat tayyorgarligi doirasida xodimlar orasida qonunchilikdagi yangiliklar, ularni kundalik faoliyatda qo'llash xususiyatlari va shu kabilarni o'rganishga qiziqish tobora kamayib bormoqda.

Shuningdek, xodimlarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini belgilashda kasbiy o'zgarish (deformatsiya) muhim rol o'ynamoqda.

Bizning fikrimizcha, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiyaviy jinoyatlarning ichki va tashqi sabablari yaxlit bir zanjirni tashkil etib, ularni alohida xodimning shaxsiy axloqiy xususiyatlari doirasidagina baholash kriminologik jihatdan yetarli hisoblanmaydi. Xizmat tizimining barqaror va korrupsiyadan xoli faoliyat yuritishi uning tarkibiy elementlari: kadrlar siyosati, moddiy rag'batlantirish, idoraviy nazorat va mehnat samaradorligini baholash mezonlarining o'zaro mutanosibligiga hamda ularning o'z zimmasidagi funksiyalarni adekvat bajarishiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ushbu konstruktiv elementlarning loqal bittasida, xususan, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlash funksiyasida tizimli uzilish yoki nomutanosiblik yuzaga kelsa, bu holat butun tuzilmaning faoliyatini izdan chiqaruvchi ichki disfunktsiyani yuzaga keltiradi. Natijada tashkiliy va iqtisodiy sohada paydo bo'lgan deformatsiyalar alohida xodimlarning kasbiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi va tizimning ichki muvozanatini saqlashga qaratilgan normativ talablarga zid ravishda, korrupsiyaviy jinoyatchilikning generatsiyalashishiga (yuzaga kelishiga) obyektiv sharoit yaratadi. Ushbu holat korrupsiyani oddiy huquqbuzarlik yoki yakka shaxsning axloqiy zaifligi mahsuli emas, balki boshqaruv mexanizmlarining samarasizligi va idoraviy tuzilmalarning nomukammalligi oqibatida rivojlanadigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etishni taqozo etadi. Xizmat faoliyatini tashkil etish tizimining yetarlicha ochiq va shaffof emasligi, qaror qabul qilish jarayonida institutsional nazoratning zaifligi ichki korrupsion elementlarning ildiz otishiga zamin yaratadi. Bu esa korrupsiyaviy jinoyatlarni sof individual xatti-harakat sifatida emas, balki tizimli muammolar va tashkiliy nuqsonlar bilan bog'liq bo'lgan institutsional oqibat sifatida baholash zarurligini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, biz ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy deformatsiyaning mavjudligini ko'rsatuvchi tipik omillarni ajratib ko'rsatdik, bular asosan



huquqiy salbiy munosabatning shakllanishi, huquq haqidagi bilimlar darajasining pasayishi, hissiy barqarorlik, mehnat qobiliyati va muloqotdagi ishonch darajasining pasayishi, shubhaning paydo bo'lishi, hujjatlarni rasmiylashtirishda yuzakilik, xizmat manfaatlariga loqaydlik, axloqiy nuqsonlar (ikkiyuzlamachilik, munofiqlik, qo'pollik va hokazo) deb hisoblaymiz.

Kasbiy buzilishning obyektiv va subyektiv omillari yuzaga kelishining sabablar majmuasini tavsiflar ekanmiz, ularning barchasini ham bartaraf etish yoki kamaytirish mumkin emasligini ta'kidlab o'tmoqchi edik. Bu murakkab operativ vaziyat oqibatida yuzaga keladigan faoliyat sharoitlarining keskinligi, ko'pincha xodimning hayoti va sog'lig'iga tahdid bilan bog'liq favqulodda holatlar, voqealarning noaniq va kutilmaganligi, qabul qilinayotgan qaror uchun javobgarlik darajasi kabi holatlarga taalluqlidir.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari xodimlarini jinoyat sodir etishga undovchi motivlarni quyidagi guruhlarga ajratdik, bular:

- mansabparastlik motivlari – har qanday vositalar bilan, shu jumladan, mansab huquqbuzarliklarini sodir etish yo'li bilan xizmat pillapoyasidan ko'tarilish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan motivlar (masalan, jinoyatlarni "issiq izi"dan fosh etishda gumon qilinuvchilarga, guvohlarga, ba'zan jabrlanuvchilarga ruhiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish);

- idoraviy-korporativ (shaxsiy) motivlar bu "jamoaxodim" munosabatlariga asoslangan sabablar hisoblanadi. Bunday motivlarning namoyon bo'lishi ko'pincha vijdonli xodimlarga (ayniqsa, xizmatga emas, balki hamkasblariga sodiqlikni o'ziga singdirgan yosh xodimlarga) guruh bosim o'tkazish holatlarida, shuningdek, kasbiy faoliyat natijalarining ijobiy statistik "manzarasi"ni yaratishda yaqqol ko'rinadi. Bu holat ayniqsa guruh a'zolari tomonidan o'z hamkasblari ustidan nazorat o'rnatilganda va ular xizmat manfaatlaridan ko'ra shaxsiy munosabatlarni ustun qo'yishga majbur qilinganda kuzatiladi;

- mansab-ijrochilik motivlari bu xizmat burchiga e'tiborsizlik va rahbar-xodim munosabatlarini o'z ichiga olgan sabablar hisoblanadi. Keyingi motivlar oldingi guruh bilan o'xshash xususiyatlarga ega. Ba'zi oddiy xodimlar, jamoa bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik va rahbar bilan ziddiyatga kirishmaslik uchun, hamkasblari va rahbarlarining manfaatlarini ko'zlab, mansab qonunbuzarliklarini sodir etishga moyil bo'ladilar;

- xizmat va g'arazlilik bilan bog'liq – xizmat vazifasini bajarish jarayonida g'arazli yoki boshqa shaxsiy manfaatdorlik, shu jumladan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishga turtki bo'luvchi sabablar (Johnston, 1997);

- konformistik – jamoada shakllangan salbiy xulq-atvor qoidalariga bo'ysunish va hamkasblar tomonidan qoralanishdan qo'rqishni ifodalovchi motivlar.

Ma'lumki, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy maqomi ularning mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadi.

Kompleks yondashuvga ko'ra ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini to'rt turga bo'lish mumkin, bular:

- 1) o'z tashkilotlari doirasida ish vaqtida asosiy xizmat majburiyatlarini bajarish;
- 2) ish vaqtida qo'shimcha daromad keltiradigan, ammo tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lishi shart bo'lmagan qo'shimcha ishlarni bajarish;

- 3) IIV tizimidan tashqaridagi boshqa tashkilotlarda, ularning topshiriqlari bo'yicha ish vaqtdan tashqari ishlash (masalan, qo'riqlash): bu faoliyat odatda tadbirkorlik xususiyatiga ega;

- 4) ishdan bo'sh vaqtda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish (masalan, xususiy haydovchilik, kirakashlik).

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni va IIO xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilariga (jumladan, IIO xodimlariga) tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qat'iy cheklov qo'yilgan (Republic of Uzbekistan, 2022). Bu huquqiy cheklovlar boshqa sohaga qaraganda IIO uchun yanada keskinroq, chunki ularning faoliyati qonun ustuvorligi, adolat va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga asoslanadi. Fikrimizcha, agar IIO xodimi tadbirkor sifatida ham faoliyat yuritisa, bu uning mustaqilligiga, xizmatdagi beg'arazligiga shubha uyg'otadi. Jamoatchilik ko'zida ichki ishlar organlariga nisbatan ishonch susayadi. Bu esa faoliyat samaradorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga keldik.

Davlat o'z xizmatchilarini zarur darajada ta'minlash choralarini ko'rish lozim, ularni tijorat bilan shug'ullanishga majbur qilmasligi kerak. Shu munosabat bilan, A.N. Variginning (Varigin, 2013, p. 22) fikrini ma'qullash o'rinli deb hisoblaymiz. Uning fikricha, davlat huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining mehnatiga munosib haq to'lanishini ta'minlashi, ularni o'z xizmat vakolatlaridan g'arazli maqsadlarda foydalanishga undamasligi lozim.

Bugungi kunda, IIO xodimlarining xulq-atvorida ko'plab yangi va g'ayriqonuniy stereotiplar paydo bo'ldi. Bular orasida yakka tartibdagi g'ayriqonuniy harakatlar hamda jinoiy guruhlar bilan hamkorlik qilish hollari mavjud.

Ichki ishlar organlarini sog'lomlashtirish shunday zaruriy shartki, usiz nafaqat jinoyatchilik o'sishini to'xtatish va uni kamaytirish, balki jamiyatdagi vaziyatni yaxshilash, uning siyosiy va ijtimoiy barqarorligiga erishish ham mumkin emas. Bu jarayon jamiyatning normal faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Omillarning keyingi guruhi tashkiliy-boshqaruv omillari bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

a) ichki ishlar organlarida kadrlarni tanlash va joylashtirish, xodimlar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishdagi kamchiliklar, bo'sh lavozimlarga tanlovning sifati yetarli emasligi va rahbarlik lavozimlariga tayinlovlardagi shaffoflik va obyektivlikning yetishmasligi;

b) xodimlar maoshining pastligi ichki ishlar organlari kadrlar xizmatlariga zarur bilim va talab etiladigan fazilatlariga ega bo'lgan xodimlarni jalb qilish imkoniyatini bermaydi, ayniqsa bugungi kunda juda zarur bo'lgan Axborot texnologiyalari va profilaktika xizmatlari uchun maxsus va yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni jalb qilishda ko'rinmoqda.

Kadrlar xizmati xodimlarni saralash o'rniga, ularni shunchaki yig'ishga majbur bo'lmoqda. Natijada ichki ishlar organlari safida o'z ijtimoiy vazifasini to'liq anglamaydigan va xizmatga kuchli shaxsiy motivatsiyaga ega bo'lmagan tasodifiy xodimlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma so'ralganlarning 63 %i dastlab xizmatga ishtiyoqmand bo'lgan xodimlar ham ko'pincha ichki ishlar organlarini tark etib, barqarorroq ish jadvali, yaxshiroq maosh, kasbiy mustaqillik va yuqoriroq ijtimoiy mavqeni afzal ko'rmoqdalar, deb javob berishgan.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini baholash tizimining mavjudligi, jinoyatlarni ochish foizi va o'tgan yillarga taqqoslanishi salbiy ta'siri. O'rganishlar davomida o'z ko'rsatkichlarini yomonlashtirmaslik uchun IIB xodimlari ko'pincha fuqarolarning arizalarini qabul qilishdan bosh tortishgan, ba'zan esa ochiqdan ochiq soxtalashtirishgacha borishgan.

Sobiq IIB boshliqlaridan biri bilan o'tkazilgan suhbat davomida ular xizmat davrida ma'lum vaqt oralig'ida ko'rsatkichlar yaxshi bo'lgan hollarda ochilgan ishlarning bir qismini ko'rsatkichlarni pasaytirish maqsadida keyingi davrga o'tkazishganligini bildirgan. Chunki bu ko'rsatkichlar bilan keyingi davrlar taqqoslanadi va ularni yana yuqori darajada saqlab qolish kerak bo'ladi.



Shuningdek, IIO xodimlari orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, xodimlarning o'z xizmat mavqeyidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishining asosiy sababi (boshqa barcha sabablardan ikki barobardan ko'proq ustun chiqib) ish haqining pastligi (67 %) deb bildirishgan. So'rovda ishtirok etganlarning 95 %i korrupsiyaning oldini olishning eng samarali chorasini ish haqini oshirish, deb javob bergan, atigi 5 %i esa bu chorani samarasiz deb baholagan.

Albatta, munosib ish haqi ichki ishlar organlarida korrupsiya darajasini tubdan kamaytirish uchun asosiy, aytish mumkinki, fundamental poydevor hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, ichki ishlar xodimlarining mutlaq ko'pchiligi halol fuqarolardir va kafolatlangan o'rtacha turmush darajasiga ega bo'lsa, qonunni buzishni istamaydi hamda o'z yaxshi nomlarini va moddiy farovonliklarini xavf ostiga qo'ymaydi.

Shuningdek, korrupsiya darajasi jamiyat va davlat mansabdor shaxslarining axloqiylikining ko'rsatkichidir. Korrupsiyani faqat "qattiq" va "yumshoq" choralar yordamida minimallashtirish mumkin. Ichki ishlar organlarida korrupsiya darajasini jilovlashda yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha bir vaqtning o'zida va kompleks tarzda harakat qilinsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, ko'pchilik xodimlarning fikricha, xodimlar orasida korrupsiyaning asosiy sababi ish haqining pastligi hisoblanadi. Ish haqining xodimlar bajaradigan ijtimoiy vazifaga mos kelmasligi, shuningdek, xodim oilasining munosib turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan minimal talablarga javob bermasligi natijasida xodim yo xizmatdan ko'proq maosh to'lanadigan ishga o'tishga, yoki boshqa, odatda g'ayriqonuniy daromad manbalarini izlashga majbur bo'ladi.

Ish haqining kamligi to'g'ridan to'g'ri korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etish, ya'ni pora olish, vakolatlarni suiiste'mol qilish va shu kabilar bo'lishi mumkin. Yoki turli xil noqonuniy ish topishlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Bular oxir-oqibat u yoki bu tarzda, turli xil, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, ish haqining pastligi tufayli ichki ishlar organlarida xizmat qilishning jozibadorligini yo'qolishi, bu esa ichki ishlar organlariga sifatli kadrlarni tanlab olishni qiyinlashtirishi mumkin.

Fikrimizcha, xodimlar mehnatiga ijtimoiy vazifasiga mos bo'lgan kafolatlangan yuqori maosh tizimi joriy etilsa, xodimlar o'z nomi va barqaror maoshini xavf ostiga qo'yishdan bosh tortadi, tizimga sifatli kadrlar (ayniqsa AT-mutaxassislari) jalb etiladi. Shu bilan birga, natijadorlikni baholashning "foiz tizimi"dan voz kechilib, xizmat sifati mezonlari kiritilsa, arizalarni yashirish va soxtalashtirish holatlari barham topadi, IIOga nisbatan jamoatchilik ishonchi tiklanadi. Rahbarlik lavozimlariga tayinlovlar ochiq va raqobatli tanlov asosiga o'tkazilsa, idoraviy-korporativ guruhbozlik motivatsiyasi susayadi degan fikrga keldik.

Xulosa

Pora berish, olish va vositachilik qilish kabi korrupsiyaviy jinoyatlar o'ta yuqori latentlik xususiyatiga ega bo'lib, bunda jamiyat va davlat manfaatlariga ulkan zarar yetkaziladi. IIO tizimida korrupsiya darajasini jilovlash uchun faqatgina alohida xodimlarni jazolash amaliyoti yetarli emas. Muvaffaqiyatga erishish uchun tizimning buzilgan elementlarini sog'lomlashtirish: iqtisodiy (maoshlarni tubdan oshirish), tashkiliy-boshqaruv (baholash mezonlarini o'zgartirish va kadrlar siyosatini shaffoflashtirish) hamda ma'naviy-psixologik chora-tadbirlarni bir vaqtning o'zida va kompleks tarzda amalga oshirish lozim. IIOni ichki sog'lomlashtirish mamlakatda siyosiy, huquqiy va ijtimoiy barqarorlikka erishishning bosh garovidir. Aksariyat hollarda


korruptsiyaviy munosabatlarning barcha ishtirokchilari: pora beruvchi, pora oluvchi va vositachi ushbu g'ayriqonuniy harakatlardan manfaatdor bo'ladi. Natijada bunday jinoyatlar ko'pincha oshkor etilmay qoladi. Holbuki, ularning oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetkaziladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimidagi tashkiliy-boshqaruv omillari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning samaradorligi, avvalo, kadrlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, shuningdek, xodimlar bilan ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlarni sifatli tashkil etish darajasiga bog'liq.

REFERENCES

1. Alibayeva, N., Kuchkarova, R., Turgunova, F., Rozimova, G., Karaketova, Q., Jumanazarova, D., & Turabaeva, Z. (2026). Suicide prevention among adolescents: Integrating psychological assistance with legal and social frameworks. *Qubahan Academic Journal*, 6(1), 325–347.
2. Cherepashkin, A. S. (2004). *Kriminalisticheskaya kharakteristika i preduprezhdenie prestupleniy, sovershyonnykh sotrudnikami militsii obshestvennoy bezopasnosti* [Criminalistic characteristics and prevention of crimes committed by public security police officers] (Abstract of candidate dissertation). Omsk Academy of the Ministry of Internal Affairs.
3. Friedrich, C. J. (1972). *The pathology of politics: Violence, betrayal, corruption, secrecy, and propaganda*. Harper & Row. https://econpapers.repec.org/article/cupapsrev/v_3a69_3ay_3a1975_3ai_3a01_3ap_3a240-241_5f24.htm
4. Ismoilov, N. T. (2004). *Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining individual oldini olish muammolari* [Problems of individual prevention of juvenile crimes] (Abstract of candidate dissertation). Tashkent State Institute of Law.
5. Johnston, M. (1997). What can be done about entrenched corruption? *Annual Bank Conference on Development Economics*, 18–24.
6. Khayitboyev, F. P. (2018). *Korruptsiyaga qarshi kurashishda insonda oliy maqsadga oid barqaror xulq-atvor me'yorlari* [Stable behavioral norms related to the highest human goal in combating corruption]. The Implementation Mechanism of the United Nations Convention against Corruption: Second Phase Analysis Conference Proceedings, 42–46.
7. Khayitov, Sh. K. (2018). *Korruptsiya: uning tarixiy ildizlari, shakllari, turlari va salbiy oqibatlari hamda manfaatlar to'qnashuvi* [Corruption: Its historical roots, forms, types, negative consequences, and conflict of interests]. The Implementation Mechanism of the United Nations Convention against Corruption: Second Phase Analysis Conference Proceedings, 88–92.
8. Kolontayevskaya, I. F. (2000). *Professionalnoe obrazovanie kadrov politsii za rubezhom (pedagogicheskiy aspekt)* [Professional education of police personnel abroad (pedagogical aspect)]. Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of Russia.
9. Republic of Uzbekistan. (2022, August 8). *On Public civil service (Law No. LRU-788)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
10. Satarov, G. A. (2004). *Antikorruptionnaya politika* [Anti-corruption policy]. Fond INDEM. <https://indem.ru/corrupt/Uc2004/Glava6.pdf>
11. Selikhov, N. V. (2001). Ponyatie korruptsii [The concept of corruption]. *Investigator*, (2), 29–31.



12. Shabanin, V. A. (1994). Politika i prestupnost [Politics and crime]. *State and Law*, (4), 65–72.
13. United Nations Office on Drugs and Crime. (2025). *Corruption and economic crime*. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/index.html>
14. Varigin, A. N. (2003). *Prestupnost sotrudnikov organov vnutrennikh del i problemy vozdeystviya na neyo* [Crime committed by internal affairs officers and problems of dealing with it] (Abstract of doctoral dissertation). Saratov State Law Academy.
15. Varigin, V. A. (2013). O prestupnosti sotrudnikov organov vnutrennikh del i ee tendensiyakh [On the crime of internal affairs officers and its trends]. *Bulletin of the Kazan Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 1(11), 31–37.
16. World Economic Forum. (2025). *The true cost of corruption on the global economy*. <https://www.weforum.org/agenda/2024/01/the-true-cost-of-corruption-global-economy>



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).